

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
NOMLI III ILMIY ONLAYN KONFERENSIYA**

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI VATANPARVARLIK
RUHIDA TARBIYALASHDA MUZEYLARNING O'RNI.

OSIYO XALQARO UNIVERSITETI " TARIX VA FILOLOGIYA " "
KAFEDRASI O'QITUVCHISI GADAYEVA MOHIGUL
MUXAMEDOVNA

OSIYO XALQARO UNIVERSITETI 4-BT-24 GURUH TALABASI
MAXMUDOVA MAXFIRAT UMID QIZI

Annotatsiya:

Mazkur maqola doirasida: Vatanning inson hayotida nechog'liq muhimligi , insonlarning vatanidagi har bir qadami yuraklarni hotirjam qilishi , bugungi kun ulg'ayib borayotgan kichik yoshdagi bolalarning ongida , qalbida vatanga, ona-zaminga nisbatan faxr - iftixor hamda g'ururlanish tuyg'usini shakllantirishda nafaqat pedagoglarning balki moziydan so'zlaydigan, undagi voqealarni o'zida aks ettiradigan muzey eksponatlarini tutgan o'rni haqida so'z boradi. Zamonaviy ustozlar (pedagoglar) zimmasiga yuklatilgan mas'uliyat , ulardagি hislatlar ; O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A Karimovning fikrlari va bugungi kun zamonaviy hamda milliy ta'lif uyg'unligi, muzey va uning vujudga kelishi , dastlabki muzeylar, arxeologik izlanishlar samarasiga oid bir qancha ma'lumotlar haqida.

Kalit so'zlar:

Vatan tushunchasi, antik davr, sivilizatsiya, o'quvchilar, pedagoglar, tarix, xalq xotirasi, ta'lif standartlari, din, an'analar, milliy qadriyatlar .

Vatan – bu so'z zamirida olam-olam ma'no mujassam. Vatan – ostonadan, inson yashab nafas olib turgan go'shadan, ajdodlar qoni to'kilgan xonodon tuprog'idan boshlanadi. Shu bois, inson ulg'ayib voyaga yetgan ona-zaminiga mehr-muhabbat va sadoqatda bo'lishi, bir hovuch tuprog'ini ko'ziga surishi insonlarga ham qarz, ham farzdir.

Bog'chadan maktab deya nomlanmish dargohga ilk qadamlarni qo'yish murg'ak qalbli bolalarda o'zgacha tuyg'u. Bir o'rinda xafalik, xarxasha bo'lsa, yana bir o'rinda yangi do'stlar orttirish istagi bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitish, yosh bolalar bilan ishslash siz-u biz o'ylaganchalik qiyin ish emas. Aksincha, bu kasbda bolalarni yoqtiradigan va ta'limga kreativ nazar bilan

FAN, TA'LIM, TEKNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI NOMLI III ILMUY ONLAYN KONFERENSIYA

yondashadigan g'ayratli muallimlar faoliyat yuritadi. Bu borada ya'ni bolaning fikrlash doirasining kengayishida nafaqat zamonaviy ustozlarning bilimi, balki tarix xotiralarini o'zida mujassamlashtiradigan muzeylarning ham o'rni beqiyos. Bu haqida O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti

I.A Karimov o'zining "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" asarida shunday fikr bildirgan : " O'zlikni anglash, tarixni bilishdan boshlanadi". Bu jumlalar zamirida chuqur ma'no yotadi. Chunki tarix – xalq xotirasi, vatanimizning o'tmishi, avlodlar sevib, e'zozlab, saboq oladigan hayot maktabidir.

Mustaqilligimizning 33 yilligini Shiori "Bir bo'lsak-yagona xalqmiz,birlashsak-Vatanmiz" deb atalishi ham bejiz emas,albatta.

Bolalar - beg'ubor, samimi, pok qalbli ochilmagan g'unchalar kabitdir. Tarbiyani oiladan olishsa , ilmni maktabdan, ilk ustozlaridan olishni boshlashadi. Aynan eng mas'uliyatli vazifani qo'liga ilk bora qalam tutqazgan, bo'g'inlab o'qishni o'rgatgan ustoz o'z zimmasiga oladi. Fidoyi inson bo'lmissiz ustoz, bolalar ko'zidagi uchqunni yanada yorqinroq porlashiga, so'nmasligiga harakat qilishi lozim. Bugungi kunda bu borada mamlakatimiz ko'plab yangi islohotlar, yangi Yevropa ta'lif standartlarini milliy an'analarimizga uyg'unlashtirib , ta'limda o'zgarishlar joriy etilmoqda.

Tarix voqealarini o'rganishda - ilmiy , nazariy-metodologik asoslarga tayanishning ahamiyati nihoyatda katta. Ayniqsa tarixni o'rganishda voqeahodisalarga holisona, haqqoniy va adolatli yondashuv talab etiladi. Mamlakatimiz tarixini o'rganishda milliy qadriyatlar, xalq an'analari, din, islom dini, odamlarning diniy e'tiqodlari, diniy ta'lifotlar va ularning asoschilarini faoliyatini tahlil qilishga , yoritishga sivilizatsion munosabatda bo'lib, ularni hurmatlash, e'zozlash nuqtai nazaridan yondashmoq kerak. Yosh avlodni ajdodlari tarixini, yuksak ma'naviyati va madaniyati bilan yaqindan tanishtirish orqali ularda milliy g'urur his-tuyg'usini tarbiyalash, vatanparvarlik g'oyalalarini shakllantirish mamlakatimiz ijtmoiy-siyosiy hayotidagi dolzarb masaladir.

Xo'sh, muzeylar oldin qayerda va qachon paydo bo'lgan va ularning ahamiyati nimalardan iboratligi haqida ushbu maqoladan baholi qudrat bilib olamiz. Bu so'z yunoncha atama bo'lib, "muza" so'zidan kelib chiqqan. Qadimgi yunon mifologiyasida san'at va fan ma'budalari "muzalar" deb yuritilgan. Shuningdek, "moziy" so'zining muzey atamasiga monand ekanligini ham e'tirof etish joizdir. "Moziy " so'zining lug'aviy ma'nosи – tarix, o'tmish degan mazmunni anglatadi. Aynan muzeylar ham vazifasiga ko'ra tarixni, o'tmishni namoyish

FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI NOMLI III ILMIY ONLAYN KONFERENSIYA

qilishi bilan avlodlarga bilim beradi. Ma'lumotlarga ko'ra, muzeylar dastlab antik davrda Yunoniston va Rimda vujudga kelgan. Ayni shu davrda kolleksiyalash toplash an'anasi paydo bo'lgan. Yunonistondagi Gelikon tog'i yonida turli tasvirdagi yodgorliklar saqlanadigan joy muzeylarning ilk ko'rinishlaridan biri hisoblangan. So'ngra uyg'onish davrida Italiyada keyinchalik Angliya, Fransiya va Germaniyada ommalashgan. Muzeylar madaniy-ma'rifiy muassasa sifatida tarixiy, moddiy va ma'naviy yodgorliklarni toplash, saqlash, o'rganish va targ'ib qilish bilan umummadaniy ishga o'z hissasini qo'shadilar.

Muzeylar tarixiy xotirani jlonlantirish omili bo'lib xizmat qilar ekan, unda namoyish etilayotgan materiallar ashyoviy dalil sifatida o'z davriga xos xususiyatlarni aks ettirganligi bilan, o'sha davr madaniyati hamda san'ati haqidagi xabari bilan bugungi kungacha juda qimmatlidir. Mamlakatimizda "Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to'g'risida"gi farmoni 1998-yil 12-yanvarda qabul qilinib, muzey xodimlarining hayotida katta ahamiyat kasb etdi. Keyinchalik mamlakatda "O'zbek muzey" jamg'armasi ham tashkil topdi.

Statistikaga nazar solsak, respublikamizda 7 mingdan ko'proq yodgorlik, shu jumladan, 2500 me'moriy obida, 2700 dan ziyod arxeologiya yodgorligi, 1800 dan ko'proq monumental san'at asari davlat muhofazasiga olingan. Hozirgi vaqtida O'zbekistonning barcha mintaqalarida, hatto ayrim olis tumanlarda joylashgan yodgorliklarni ta'mirlash, nurashdan saqlash ishlari olib borilmoqda.

Buni qarangki, muzeyga borib siz nafaqat tarixga oid ma'lumotlarni emas, balki u yerdagи o'zgacha sukutdan, buyumlarning antiqaligidan estetik zavq olib dam olish imkoniyatiga ega bo'lasiz. Shu sababdan tez-tez tarixiy yodgorliklarni aylanish, o'tmishimiz haqida ma'lumotlarga ega bo'lishni barchangizga tafsiya qilgan bo'lar edim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bekmurodov M.B. Rashidova M.X "Muzeyshunoslik" Tos
2. <https://oliymahad.uz/38448> .
3. <https://lex.uz/docs/-209722?ONDATE=12.01.1998%2000>